



2019 yil yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 7131,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 9,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash-16,7 % ga, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash 0,8 % ga o'sishi hisoblandi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (2019 yil yanvar-iyun)



Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.






Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6841,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,7 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 27,2 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali - 11,1 % ni va quyi texnologiyali - 57,0 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 200,2 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,9 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.




Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida isteʼmol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3980,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,3 % ga oʻsishini taʼminladi, jami sanoatdagi ulushi esa 55,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2019-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,3 % dan 2019-yil yanvar-iyun oyida 61,8 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 3,5 % ni (2018-yil yanvar-iyun oylarida 3,3 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3077,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 43,2 % ni tashkil etdi

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-iyun




2019 yil yanvar-iyun



- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,4 %), Jomboy (16,9 %), Urgut (8,3 %), Samarqand (8,1 %) va Tayloq (5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan 3745,8 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 52,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar boʻyicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qoʻshrabot (100,0 %), Samarqand (99,7 %), Urgut (97,5 %), Oqdaryo (92,7 %) va Bulungʻur (87,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqoʻrgʻon shahri (22,2 %), Narpay (21,9 %) va Jomboy (19,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)
Qayta ishlash sanoati

| <i>Sanoat mahsulotlari nomi</i> | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2019-yil yanvar-iyun</i> | <i>O'sish sur'ati, %</i> |
|---|---|-----------------------------|--------------------------|
| Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar |  | <i>ming tonna</i> | 14,36 107,8 ↑ |
| Aroq |  | <i>ming l. 100% spirt</i> | 179,3 21,4 ↓ |
| Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari |  | <i>ming l. 100% spirt</i> | 116,6 71,8 ↓ |
| Uzum vinosi |  | <i>ming l.</i> | 452,9 90,7 ↓ |
| Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari) |  | <i>ming l.</i> | 13964,0 98,5 ↓ |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni |  | <i>ming tn.</i> | 75,4 95,2 ↓ |

| | | | | | |
|--|---|------------------------------------|--------|------|---|
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni (buxanka), og'irligi 600 g. |  | <i>tn.</i> | 343,0 | 88,7 |  |
| Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari) |  | <i>tn.</i> | 5350,0 | 71,5 |  |
| Paxta tolasi |  | <i>ming tn.</i> | 18,7 | 43,0 |  |
| Paxta chigiti |  | <i>ming tn.</i> <i>ming tn.</i> | 30,8 | 56,5 |  |
| Paxta tiviti (lint) |  | <i>tn.</i> | 1612,0 | 57,0 |  |


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

| | | | | | |
|---|---|-------------------|------|-------|---|
| Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi |  | <i>mln.kVt/s</i> | 42,3 | 154,5 |  |
| Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi) |  | <i>ming Gkal.</i> | 38,9 | 100,5 |  |

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5613 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1493 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 26,6 %) Samarqand shahriga, 804 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 524 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019 yil iyul holatiga)



2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 1230 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko'pi Samarqand shahri (19,1 foiz), Urgut (10,7), Pastdarg'om (10,0 foiz), Samarqand (8,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019 yil 1 iyul holatiga)




Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur asosida kiritilgan 35 ta loyiha bo'yicha 231,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 3,4 mln. AQSh dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 299 ta yangi ish o'rinlar yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 7,1 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-iyungacha nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport hajmining 88,9 foizga ko'payishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-iyun oylari uchun)

| | 2018 yil | 2019 yil |
|--|----------|----------|
| Loyihalar soni, birlik | 34 | 35 |
| Korxonalar soni, birlik | 18 | 17 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm | 202,7 | 231,7 |
| Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot majmi, mln. AQSh doll. | 2,8 | 3,4 |
| Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik | 42 | 299 |



Sanoat statistikasi bo'limi
E.A.Qo'qonov
Tel: (66) 235-06-80